



## O'LDIRISH YOKI ZO'RLIK ISHLATISH BILAN QO'RQITISH JINOYATINING YURIDIK TAHLILI VA XORIJ TAJRIBASI

**Yo'ldoshev Muxriddin Tursunmurod o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens

nazorat mutaxassisligi magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10243520>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> November 2023

Accepted: 29<sup>th</sup> November 2023

Online: 30<sup>th</sup> November 2023

### KEY WORDS

*O'ldirish, zo'rlik ishlatish, qo'rqitish, jinoyat, kvalifikatsiya qilish, javobgarlik, yuridik tahlil, jabrlanuvchi, shaxs, ob'ekt.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jinoyatining yuridik tahlili va xorij tajribasi kabi masalalari bayon etilgan. Shuningdek, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jinoyatini kvalifikatsiya qilishga doir taklif, tavsiyalar berilgan.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi", deyilgan. Shundan kelib chiqqan holda shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining asosiy vazifalaridan biridir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, insonning hayoti va sog'lig'i shaxsning bebaho boyligi hisoblanib, uning bu boyligidan mahrum etilishi yoki shikast yetkazilishi og'ir jinoyat hisoblanadi. Bu esa, ushbu turdagi ya'ni, shaxsga qarshi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi, ularning sodir etilishi natijasida hayot va sog'liq, jinsiy erkinlik, oila va yoshlarning manfaatlarini, axloq normalari, shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmati, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga jiddiy zarar yetkazilishi bilan shartlanadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 112-moddasida o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish uchun javobgarlik berilgan bo'lib, bu moddada nazarda tutilgan harakat amalga oshirilishidan jabrlanuvchida xavfsirash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lgandagina jinoiy javobgarlikni belgilaydi.

Ushbu jinoyatni yuridik tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur jinoyatning bevosita ob'ekti boshqa shaxsning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish natijasida aynan ushbu ijtimoiy munosabatlar xavf ostida qoladi.

Ushbu jinoyat ob'ektiv tomondan o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishda ifodalanadi.



Ushbu jinoyatni tahlil qilar ekanmiz “zo’rlik ishlatish”, “qo’rqitish” kabi tushunchalarga to’xtalamiz, o’zbek tilining izohli lug’atida “zo’rlik” so’ziga zo’ravonlik, adolatsizlik<sup>1</sup> degan ta’rif berilgan.

Shu tarzda bu ta’rifda zo’rlik so’zining leksik ma’nosini ochishda jismoniy kuch ishlatishda ifodalaniladigan o’zboshimcha harakatning tashqi ko’rinishiga e’tibor qaratilgan. Bu esa jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyotida o’z ifodasini topgan. Shundan kelib chiqib, jismoniy zo’rlik jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy kuch ishlatishga olib keluvchi jinoiy xatti-harakatning usuli sifatida olimlarning ilmiy yondashuvlariga asos bo’lgan.

Shuning uchun ham “zo’rlik atamasining grammatik izohlash yoki izohli lug’atlarida berilgan etimologik ma’nosini aniqlab olish yo’li bilan uning jinoyat-huquqiy ma’nosini bilish qiyin”.

Yuqoridagilarni hisobga olib, “zo’rlik” so’zining haqiqiy, tom ma’nosi, “bir tomon, ikkinchi tomonning xohishiga qarshi yo’naltirilgan erkin xulqi va insonlar o’rtasidagi muayyan o’zaro munosabatlarni aks ettiradi” deyish mumkin<sup>2</sup>.

Bu borada A.V.Ivashchenko va A.I.Marsev o’z ma’nosi bo’yicha zo’rlik bilan bog’liq uchta juda nozik va chuqur takliflarni ta’riflab berishadi. “Ya’ni zo’rlik sifatida erkin istak bildirishiga qarshi bevosita qaratilgan ongli tezkor faoliyatlarni ko’rib chiqish lozim. Zo’rlikni bunday tushunishda uning kamdan-kam uchraydigan o’ziga xos xususiyatini biror kishining erki-irodasiga qarshi harakat sodir etilishi, erkinligi cheklanishi, unga shikast yetkazilishi deb hisoblash zarur. Inson faoliyatining ko’pgina boshqa shakllaridan farqli o’laroq, faqat zo’rlik harakatlari shaxsning erkinligini cheklashga qaratilgan xulqdan iboratdir”<sup>3</sup>. Bizningcha, izohlab berilgan tushuncha har qanday fan, jumladan, jinoyat huquqi fani nuqtai nazaridan zo’rlikni o’rganish uchun asos bo’ladi.

“Zo’rlik” tushunchasi ayrim huquqshunoslar tomonidan ham keng ma’noda talqin qilinadi. Xususan, Yu.M.Antonyan, I.B.Boyko va V.A.Vereshchagin “autoagressiya” yoki “o’ziga o’zi ishlatiladigan zo’rlik”ni insonning o’ziga qarshi qaratilgan ongli faoliyati sifatida e’tirof etgan<sup>4</sup>. A.V.Naumovning fikricha esa “...zo’rlik (jumladan, zaruriy mudofaada ishlatiladigan zo’rlik) qonuniy bo’lib, faqat uni qonunga xilof va ijtimoiy xavfli bo’lgan voqealardan ajrata olish lozim”<sup>5</sup>.

Biz bu fikrga qo’shila olmaymiz, chunki maishiy ma’nodagi emas, balki huquqiy ma’nodagi zo’rlik aniq bir ta’rifga ega bo’lishi lozim. Zo’rlik ishlatish bilan unga qarshi himoyalaniшни bir xil tushuncha deb qarash to’g’ri bo’lmaydi. Masalan, shaxsga zo’rlik ishlatayotganda unga nisbatan qarshi qilingan harakatlarini zo’rlik deyish noto’g’ri, chunki u zo’rlikka barham berish uchungina qarshi harakat qiladi.

Zo’rlik atamasi mazmuniga o’zbek huquqshunoslari tomonidan “biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo’rlik qilishi, zo’rlashi, kuch ishlatish yo’li bilan zo’rlashi, jabr-zulm

<sup>1</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати (А.Мадвалиев таҳрири остида). Т.2.–Т. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б. 167.

<sup>2</sup>Ивашченко А.В., Марцев А.И. Методология правового исследования насилия // Социально-правовые проблемы борьбы с насилием. – Омск, 1996. – С. 4.

<sup>3</sup>Ивашченко А.В., Марцев А.И. Методология правового исследования насилия // Социально-правовые проблемы борьбы с насилием. – Омск, 1996. – С. 4.

<sup>4</sup> Антонян Ю.М., Бойко И.Б., Верещагин В.А. Насилие среди осужденных. – М., 1994. – С. 66.

<sup>5</sup>Наумов А.В. Уголовно-правовое значение насилия / В кн. «Насильственная преступность». Под ред. Кудрявцева В.Н. и Наумова А. В. – М., 1997. – С. 56.



qilishi” deb ta’rif berilgan. Ularning fikricha, zo’rlik “inson daxlsizligini buzib, jismoniy va ma’naviy zo’rlash, jabr-zulm qilish shaklida bo’lishi mumkin”<sup>6</sup>.

A.V.Naumov zo’rlik tushunchasini keng talqin qilish tarafdori sifatida zo’rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar qatoriga ehtiyotsizlik orqasidan odam o’ldirishni ham kiritgan va bu yondashuvni to’la qo’llab-quvvatlagan<sup>7</sup>. Biroq bu yondashuv L.V.Serdyuk tomonidan tanqid qilinib, aybning ehtiyotsizlik shaklida sodir etiladigan jinoyatlar uchun zo’rlik xos emas<sup>8</sup>, deb ta’kidlangan.

Q.P.Payzullaev ham zo’rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar ehtiyotsizlikdan emas, balki qasddan sodir etiladi<sup>9</sup> degan fikrni ilgari suradi.

Zo’rlik ishlatish deganda jabrlanuvchining qarshiligini yengishga qaratilgan harakatlarni sodir etishdir<sup>10</sup>.

Bizning fikrimizcha, bironvga nisbatan ongli ravishda zo’rlik ishlatish, unga jismoniy yoki ruhiy azob berish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan jinoyatlarda bo’lishi mumkin emas. Yuqoridagi holatda zo’rlik chegaralari uning tushunchasiga nisbatan asosiz ravishda kengaytirib yuborilgan. Ehtiyotsizlikdan odam o’ldirish qonunga xilof, lekin aybdorning ixtiyoriy bo’lmagan harakati natijasidir. Bu yerda zo’rlikning asosiy belgisi bo’lgan shaxsga ziyon yetkazuvchining irodasi yetishmaydi. Ya’ni, biror-bir oqibatni istamasdan, balki u haqida bilmasdan shaxs zo’rlik ishlatishi mumkin emas.

Qo’rqitish deganda, jabrlanuvchiga ruhiy (psixik) ta’sir etish yo’li bilan tahdid qilish tushuniladi. Bunda qo’rqitishning ifoda qilish usullari turlicha bo’lishi mumkin. Masalan, bevosita jabrlanuvchining o’ziga yoki uchinchi shaxslar yoxud unga yaqin kishilar orqali og’zaki yoki yozma shaklda, telefon, telegraf, faks, internet yoki boshqa shu kabi vositalardan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Agar qo’rqitish boshqa shaxslar orqali yetkazilgan bo’lsa, albatta u haqda uchinchi shaxs orqali jabrlanuvchi ogohlantirilgan bo’lishi kerak<sup>11</sup>.

M.H.Rustamboevning fikricha, qo’rqitish deganda, ob’ektiv haqiqatni shaxsan jabrlanuvchiga yoki uchinchi shaxslar orqali (og’zaki, yozma tarzda, qurolni ko’rsatish orqali va boshq.) huquqqa xilof harakatlarni sodir etish maqsadi borligini yetkazish tushuniladi<sup>12</sup>.

Jinoyat kodeksining 112-moddasi birinchi qismida qo’rqitishning ikkita turi nazarda tutilgan bo’lib, birinchi belgisi o’ldirish bilan qo’rqitish va ikkinchi belgisi zo’rlik ishlatish bilan qo’rqitishdir. Qo’rqitishning ushbu turlari faqatgina jabrlanuvchi tomonidan aybdorning bunday qo’rqitishni amalga oshirishidan xavfsirash uchun yetarli asoslar mavjud

<sup>6</sup>Муаллифлар жамоаси. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги хузуридаги «Адолат» нашриёти, 2009. – Б. 199.

<sup>7</sup>Наумов А.В. Уголовно-правовое значение насилия / В кн. «Насильственная преступность». Под ред. Кудрявцева В.Н. и Наумова А. В. – М., 1997. – С. 58.

<sup>8</sup>Сердюк Л.В. Насилие: криминологическое и уголовно-правовое исследование. – М.: Юрлитинформ, 2002. – С. 14.

<sup>9</sup>Пайзуллаев Қ.П. Зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятлар. – Т., 2009. – Б. 18.

<sup>10</sup>Жиноят ҳуқуқи. Маҳсул қисм: Дарслик / Р.Қабуллов, А.Отажонов ва бошқ. Масъул муҳаррир Ш.Т.Икрамов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1-бўлим, 2014. – Б. 108.

<sup>11</sup>Отажонов А.А. Шахсга қарши жиноятлар: Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – Б.93.

<sup>12</sup>Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. III том. Шахсга қарши жиноятлар. Тинчлик ва хавфсизликка қарши жиноятлар. Олий таълим муассасалари учун дарслик. – Т.: “ILM ZIYO”, 2011. – Б.115.



bo'lgan taqdirdagina javobgarlikni keltirib chiqaradi. Agar o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish hazil qilish natijasida yoki jahl ustida ifoda etilgan bo'lib, jabrlanuvchida xavfsirash uchun hech qanday sabablar qoldirmagan bo'lsa, bunday qilmish jinoyiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

O'ldirish bilan qo'rqitish deganda, boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish niyati borligi haqida har qanday usul bilan uni xabardor qilish tushuniladi.

Zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish deganda, aybdorda jabrlanuvchining sog'lig'iga shikast yetkazish niyati borligini ifoda qilish tushuniladi.

Jinoyat kodeksi 112-moddasining matnida jabrlanuvchiga qanday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish kerakligi aniq belgilab qo'yilmagan. Shu bois, Jinoyat kodeksining 112-moddasida qayd etilgan jabrlanuvchiga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan zo'rlikni ham jismoniy, ham ruhiy xususiyatga ega bo'lgan zo'rlik sifatida tushunish mumkin.

Ruhiy zo'rlik deganda, shaxsning hayoti yoki sog'lig'iga kuch ishlatish mumkinligi to'g'risida jabrlanuvchining irodasiga har qanday usulda ta'sir o'tkazish tushuniladi<sup>13</sup>.

Aytish joizki, jabrlanuvchiga nisbatan qo'llanilayotgan zo'rlik darhol yoki kelajakda qo'llash bilan qo'rqitilishi mumkin. Qonun chiqaruvchi tahlil etilayotgan jinoyat tarkibining ob'ektiv tomoni zaruriy belgisi sifatida qo'rqitishning aniqligi va haqiqiylikini ko'rsatadi, ya'ni jabrlanuvchida ob'ektiv holat sifatida aybdor tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan zo'rlikni amalga oshirishi uchun real asoslar bo'lishini taqozo etadi.

Zo'rlikni amalga oshirishning aniqligi jabrlanuvchi va aybdor o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning xususiyatlari, aniq sharoit, zo'rlikni amalga oshirish imkoniyatining qat'iyiligi, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitayotgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari va boshqa shu kabilarni inobatga olgan holda aniqlanadi. Mazkur holatni aniqlash surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning vakolatiga kiradi. Mantiqiy jihatdan zo'rlik jabrlanuvchiga o'zining hayoti yoki sog'lig'ini aniq himoya qilishi uchun asos uyg'otuvchi, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqituvchi aybdor tomonidan u yoki bu vositalar, usullar, predmetlardan foydalanganda aniqlik xususiyatini beradi, ammo qo'rqitishni amalga oshirayotgan vaqtda u yoki bu ko'rinishdagi qurol va vositalardan foydalanilmasligi ham mumkin.

Jinoyat kodeksining 112-moddasi matnida qo'rqitishning haqiqiyiligi uning amalga oshirilishidan xavfsirash uchun asoslar mavjud bo'lishi tariqasida ochib berilib, jabrlanuvchiga nisbatan amalga oshirilishidan xavfsirash uchun asoslar beradigan sifatlarga ega bo'lgan qo'rqitish haqiqiy deb topiladi. Jabrlanuvchida qo'rqitishning amalga oshirilishidan xavfsirash uchun asoslar bor yoki yo'q degan masalani hal qilishda aybdor tomonidan ifodalangan so'zlarning mazmuni, qo'rqitishga sabab bo'lgan mojaroning jiddiyiligi, keskinligi, qo'rqituvchi va qo'rqitiluvchi o'rtasida vujudga kelgan munosabatlar xususiyatini hisobga olish kerak bo'ladi.

Qo'rqitishning jabrlanuvchi tomonidan idrok etilishiga vaziyat ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hech kimdan yordam olish mumkin bo'lmagan xilvat joyda, sub'ektning harakatlari atrofdagilarning ochiq-oydin qo'llab-quvvatlanishi va boshqa shu singari holatlarda bo'lishi mumkin.

<sup>13</sup> Отажонов А.А. Шахсга қарши жиноятлар: Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – Б.94.



Mazkur jinoyatning sub'ektiv tomoni to'g'ri qasddan sodir etiladi. Shu bois, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish aniq shaxsga nisbatan yo'naltirilgan va aniq niyatni o'zida ifoda etgan bo'lishi kerak. Agar qilmish sodir etilishida ushbu belgilar mavjud bo'lmasa, qilmish Jinoyat kodeksining 112-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

Agar o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish boshqa jinoyatni sodir etish usuli sifatida namoyon bo'lib, ushbu jinoyatlar uchun Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida alohida javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining faqat og'irroq jinoyat uchun javobgarlik belgilovchi bitta moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi (masalan, bosqinchilik jinoyati sodir etilishida o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitilgan bo'lsa, qilmish faqat bosqinchilik deb, Jinoyat kodeksining 164-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Chunki bunda qilmishni yengilroq jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi modda bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi).

Mazkur jinoyatning sub'ekti jinoyat sodir etilgunga qadar 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 112-moddasi ikkinchi qismida o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish: a) o'ta xavfli residivist tomonidan; b) uyushgan guruh a'zosi yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Ta'kidlash lozimki, agar o'ldirish, zo'rlik ishlatish yoki mol-mulkn yuqib yuborish, portlatish yoki boshqa atrofdagilar uchun xavfli usulda nobud qilish bilan tahdid etish, nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyati sodir etilgandan keyin, masalan, jabrlanuvchini qo'rqitish va voqea oshkora bo'lishining oldini olish maqsadida sodir etilgan bo'lib, bunday tahdid amalga oshirilishidan xavfsirashga doir yetarli asoslar mavjud bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining qayd etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari va Jinoyat kodeksining 118-moddasi yoki 119-moddasining tegishli qismlari bo'yicha jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi<sup>14</sup>.

Jinoyat kodeksining 112-moddasi uchinchi qismida esa, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning qarindoshlariga nisbatan sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu jinoyat uchun javobgarlik nazarda tutilgan ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qiladigan bo'lsak, MDH davlatlaridan Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 119-moddasi o'ldirish yoki sog'liqqa og'ir shikst yetkazish bilan qo'rqitish deb nomlangan bo'lib, unga ko'ra, agarda ushbu qo'rqitish amalga oshirilishidan xavsirash uchun asoslar mavjud bo'lgandagina jinoiy javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaning ikkinchi qismida ushbu jinoyat siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy yoki diniy nafrat va adovat motivlari yoki qaysidir ijtimoiy guruhga nisbatan nafrat va adovat motivlariga ko'ra sodir etilganda kelib chiqadigan jinoiy javobgarlik belgilangan<sup>15</sup>. Qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 112-moddasida bunday band mavjud emas.

Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining ayni shu nomdagi 134-moddasi bitta qismdan iborat bo'lib, unga ko'ra, o'ldirish yoki sog'liqqa og'ir shikast

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2010 йил 29 октябрдаги 13-сонли «Номусга тегиш ва жинсий эҳтиёжни ғайритабiiй усулда кондиришга доир ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарорининг 4-банди.

<sup>15</sup> [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_10699/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/)



yetkazish, agarda bundan xavsirash uchun real asoslar mavjud bo'lsa, jinoiy javobgarlik kelib chiqadi<sup>16</sup>.

Qozog'iston Respublikasining Jinoyat kodeksi 115-moddasida ayni ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, mazkur modda qo'rqitish deb nomlangan bo'lib, unga ko'ra, o'ldirish yoki sog'liqqa og'ir shikast yetkazish, shuningdek, shaxsga nisbatan boshqacha zo'rlik ishlatish yohud mol-mulkni yoqib yuborish, portlatish yoki atrofdagilar uchun xavfli usulda nobud qilish bilan qo'rqitish, agarda bunday qo'rqitish amalga oshirilishidan xavsirash uchun yetarlicha asoslar bo'lganda jinoiy javobgarlik kelib chiqadi<sup>17</sup>.

Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat kodeksining 147-moddasida xuddi shunday jinoiy qilmish uchun javobgarlik belgilangan. Unga ko'ra, hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, agarda xavsirash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lganda mazkur jinoyat tarkibi kelib chiqadi. Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko'ra, o'sha harakat xizmat yoki kasbiy vazifasini amalga oshirish yoki jamoat burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etilganda og'irroq jinoiy javobgarlik kelib chiqadi<sup>18</sup>.

Koreya Respublikasi Jinoyat kodeksining 283-moddasida boshqa birovni qo'rqitish uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko'ra mazkur qilmish shaxsning turmush o'rtog'iga nisbatan sodir etilishi uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaning uchinchi qismiga ko'ra, agarda jabrlanuvchining qarshiligi mavjud bo'lganda mazkur jinoyatlar uchun shaxs jinoiy ta'qib qilinmaydi. Kodeksning 284-moddasida esa, 283-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan harakat jamoaviy kuch ishlatish yoki xavfli qurollar olib yurish bilan tahdid qilish orqali sodir qilinganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan<sup>19</sup>.

Xulosa qiladigan bo'lsak, mazkur davlatlar qonunchiligini tahlil qilish natijasida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 112-moddasini takomillashtirish lozim degan xulosaga kelish mumkin. Xususan, mazkur moddaning ikkinchi qismini quyidagicha: **“Mol-mulkni yoqib yuborish, portlatish yoki atrofdagilar uchun xavfli usulda nobud qilish bilan qo'rqitish; milliy yoki irqiy adovat zamirida; diniy taassublar zamirida; shaxsning yaqin qarindoshlariga, shu jumladan turmush o'rtog'iga nisbatan sodir etilgan bo'lsa”**, degan og'irlashtiruvchi holatlar bilan to'ldirishni taklif etamiz.

Taklif qilinayotgan tahrirga ko'ra, 112-modda ikkinchi qismni yangi bandlar bilan to'ldirish o'z navbatida, qo'rqitish, ya'ni birovga tahdid qilish har doim ham o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish ehtimoli bilan sodir etilmaydi. Mazkur motivlar bilan ayni qilmish sodir etilganda amaliyotda kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli 112-moddasi ikkinchi qismini yuqorida nazarda tutilgan bandlar bilan to'ldirish taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, shaxsning yaqin qarindoshlariga, shu jumladan turmush o'rtog'iga nisbatan sodir etilgan qo'rqitish uchun javobgarlikni ham belgilash taklif etilmoqda.

<sup>16</sup> [https://online.zakon.kz/document/?doc\\_id=30420353](https://online.zakon.kz/document/?doc_id=30420353)

<sup>17</sup> [https://online.zakon.kz/document/?doc\\_id=31575252](https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31575252)

<sup>18</sup> [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=34350840#pos=0;0](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=34350840#pos=0;0)

<sup>19</sup> <http://www.law.go.kr/LSW/eng/engLsRtfPrint.do?save=save&docSelectId=doc&lsiSeq=188383&ancYd=20161220&ancNo=14415>



Yuqorida Koreya Respublikasi tajribasidan keltirilgan misolda va boshqa ko'p davlatlarda zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish oilada, shu jumladan turmush o'rtog'iga nisbatan sodir etilsa, jinoyatni og'irlashtiruvchi holat sifatida qabul qilinishi namoyon bo'ldi. Bizda esa oiladagi zo'ravonliklar, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishlar yetarlicha baholanmaydi va e'tiborga olinmaydi. Aslida qonun oldida oilaviy rishtalar qandayligidan qat'iy nazar, barcha teng huquqlidir. Ko'chadagi begona insonga nisbatan qilingan zo'rlik ishlatish qanday javobgarlikka tortilsa, oiladagi shaxsga nisbatan zo'ravonlik ham shunday jazolanadi. Achinarlisi ko'pincha ayni holatlarda jabrlanuvchining o'zi murojaat qilmaydi yoki ishni javobgarni jazolashgacha olib bormay, da'vosini qaytarib oladi. Jazolanmagan jinoyatlar esa takrorlanishi sir emas. Shu bois boshqarib bo'lmaydigan, kishi hayotiga xavf tug'diradigan, uni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazadigan oilaviy zo'ravonlik katta ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda.